

**Germaniya milliy-demokratik partiyasi va uning Germaniya siyosiy
hayotidagi o'rni**

Egamberdiyev Quvonchbek Nurgali o'g'li

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Germaniya siyosatida muhim o'rini egallagan Germaniya milliy-demokratik partiyasi va uning mamlakat hayotiga ta'siri haqida so'z yuritilgan. Umumiy olganda ushbu maqola orqali Germaniyadagi parlament va partiyaviy tizimni dunyodagi eng demokratik tizim ekanligiga guvoh bo'lamiz.

KALIT SO'ZLAR: GMDP, NDP, Nationaldemokratische Partei Deutschlands, Germaniya milliy-sotsialistik ishchilar partiyasi, Kyonigsberg Universiteti Xans Gryunberg, Udo Pastors

Germaniya milliy-demokratik partiyasi (GMDP, nem. Nationaldemokratische Partei Deutschlands, NPD) – GFRning siyosiy partiyasi bo'lib, ayrimlar bu partiyani Germaniya milliy-sotsialistik ishchilar partiyasining davomchisi sifatida ko'rishadi. Partiya Uchinchi reyx rejimi tarqalib ketganidan so'ng, 1964-yil 28-noyabrda tashkil etildi. Ushbu partiya asoschilaridan biri – Kyonigsberg universiteti rektori Xans Gryunberg edi. 1965-yildagi Bundestagga saylovlarda GMDP 664.193 (2%) ovoz olishga muvaffaq bo'ldi. Partiyaning muvaffaqiyatli davri 1960-yillarning oxirlariga to'g'ri keladi. Bu davrda partiya asosan G'arbiy Germaniyadagi mahalliy boshqaruv organlariga ko'plab vakillarini saylanishiga erishdi. 1966 va 1967-yillarda Bavariyada 15 mandatga egalik qilishdi, Quyi Saksoniyada esa 10 ta, Gessenda 8 o'rinn va boshqa hududlarda ham muvaffaqiyatga erishdilar. Ammo, federal saylovlarda GMDP 5% dan kamroq ovoz oldi, buning natijasida, partiya o'z vakillarini parlament tarkibiga o'tkaza olmadi. Bu maqsadga erishish uchun partiya bir qator choralar ko'rib bordi, bunga 1969-yilgi saylovlarda erisha oldilar. GMDP 1969-yilgi

saylovlarda – 4,3% aniqrog'i 1.422.010 nafar saylovchi tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Iqtisodiy tushkunlik, yoshlarning xafsalasi pir bo'lishi va XDI hamda XSIning koalitsion hukumat tuzishi, Sotsial-demokratlarning bir qadar kuchsizlanib borishi GMDPga o'z yo'naliishida davom etib borishida ko'maklashdi. Koalitsiya tuzilishi oqibatida an'anaviy o'nglar siyosiy kuchlarining egallagan joyidagi bo'shliqni yuzaga keltirdi, ushbu bo'shliqni GMDP to'ldirishga harakat qildi. Tarixchi Uolter Laker ta'kidlashicha, 1960-yillarda GMDP neonatsistik partiya emasligi aniq edi. Koalitsiya bo'linib ketgandan keyin, GMDPga ovoz bergenlarning deyarli 75% saylovchisi o'zlarining o'nglar siyosiy kuchlari tomoniga qaytib o'tib ketdi. 1970-yillarda GMDP obro'si nisbatan tushib bordi. Uning ichki siyosiy kurashlari markazlashuvga xalaqit berar edi, undan tashqari partiya federal parlamentga o'z vakillarini o'tkaza oladigan darajadagi kuchga ega emas edilar. GMDPning nisbatan mavqeい ko'tarilishi va mashhurligi oshishi 1980-yillar oxiri 1990-yillar boshlaridagi immigratsion masalalarining avj olib ketgan vaziyati oqibatida yuz berdi. Ammo, partiya faqatgina hududiy hukumatlar saylovlariagi muvaffaqiyatlari bilangina cheklanib qolishga majbur edi.

2001-yilda Bundestag, Bundesrat va Germaniya hukumati Federal konstitutsion sudga GMDPni taqiqlab qo'yish arznomalari bilan murojaat qilishdi. Biroq, 2003-yilda konstitutsion sud ishni yopdi va uni davom ettirishdan bosh tortdi, Keyinchalik aniqlanishicha, GMDPning yetakchilarining chiqishlardagi nutqlaridan misollar sudda bildirildi – bu bilan GMDP o'ng ekstremistik kuch ekanligi va konstitutsiyaga qarshiligi uqtirildi, ish yuzasidan asosiy guvoh ham Boshqarma vakili ekanligi, undan tashqari tashkilotning har yettinchi a'zosi maxsus xizmat vakili ekanligi topilganligini kuzatish mumkin bo'ldi. 2004-yil partiya Saksoniya hududida 9,2%, Baden-Vyurtembergda 9,8% ovoz oldi (2009-yilda bu ko'rsatkich tushib – 5,6% miqdorni tashkil etdi) va mahalliy parlamentga 1968-yildan buyon birinchi bora o'tdi. Saksoniyada 2014-yilgi Landtagga bo'lган saylovlarda GMDP 4,9% ovoz oldi va deputatlik mandatlariga ega bo'la olmadilar.

2005-yildagi Bundestagga bo’lgan saylovlarda GMDP 1,6% - aniqrog’i 748.586 ovozni to’plashga muvaffaq bo’ldi. 2008-yil dekabr oyida Passau (Bavariya) shaharchasi politsiya boshlig’iga neonatsistlarning qo’pol hujumi uyushtirildi, natijada ko’plab nemis siyosatchilari GMDPning taqiqlab qo’yilishiga erishish uchun yana harakat boshlab yubordilar. Meklenburg-Yuqori Pomeraniyadagi GMDPning boshqaruvi vakillari Rossiyaning Janubiy Osetiyadagi qurolli kelishmovchilikdagi pozitsiyasini qo’llab-quvvatladilar.

2009-yil 4-aprelda partianing maxsus qurultoyida GMDP delegatlarining 62%i Udo Foygtni partiya raisligiga qayta saylashga rozilik bildirdilar. Udo Foygt partiyani (1996-yildan boshlab) 15 yil davomida boshqarib keldi. 2009-yil uning raislikka nomzodi anchagina susayib qolgan edi, chunki partiya bu vaqtida chuqur iqtisodiy yetishmovchilikni boshdan kechirayotgan edi. Bu iqtisodiy yetishmovchilikning asosiy sababi – bu davlatga to’langan 2,5 mln yevro miqdoridagi jarima edi. Bunday norozichiliklar sharoitida 2011-yil noyabrdagi partianing navbatdagi qurultoyida yangi yetakchi saylandi, u Xolger Apfel edi.

2009-yil Bundestagga o’tkazilgan saylovlarda GMDP 1,5% ovoz to’pladi. GMDPga 635.525 nafar saylovchi ovoz berdi, bu ko’rsatkich 2005-yildagi saylov natijalarida 100 mingdan ortiq saylovchiga kamayishni ko’rsatdi. 2009-yil 29-oktabrda Yurgen Riger vafot etdi, u 2008-yil may oyidan federal GMDPning raisi o’rinbosari edi, 2007-yil fevraldan GMDPning Gamburg bo’limi raisi edi. 2010-yil iyunida GMDP va Nemis xalq ittifoqining birlashuvi bo’yicha muzokaralar o’tkazildi. 2011-yil 1-yanvarida GMDP va Nemis Xalq ittifoqining birlashuvi yuz berdi. 2011-yil 20-mart kuni Saksoniya-Anxalt hududidagi Landtagga bo’lgan saylovlarda GMDP 4,6% ovoz to’pladi. 2011-yil 4-sentabr kuni Meklenburg-Yuqori Pomeraniyada Landtagga saylovlari bo’lib o’tdi. Unda GMDP 6% ovoz to’pladi va hududiy parlamentda 5 ta deputatlik o’rniga ega bo’lib oldi.

2011-yil dekabrda Neonatsistlarning “Milliy-sotsialistik yashirin tashkiloti (MSYT) a’zolarining 10 ta qotillik va 14 ta o’g’irlik harakatlarida aybdorligi munosabati bilan qo’lga olindi, Germaniya ichki ishlar vaziri Gans-Peter Frederik bayonot bilan chiqish qilib, u o’z chiqishida GMDP faoliyatining

taqiqlab qo'yilishiga qo'ldan kelgan barcha choralarni ko'rishini aytdi. Bu holat 2011-yil noyabr oxirlarida MSYT tashkiloti amalga oshirgan 6 ta qotillikka GMDPning a'zosi – Ralf Volleben aloqadorlikda ayblanidan so'ng yuzaga keldi, Frederik yana GMDPning taqiqlab qo'yilishi bo'yicha yuridik taqiqlash rejasini ishlab chiqdi, rejani 22-martda bo'lib o'tuvchi federal bosh vazirlar konferensiyasida taqdim etishni ko'zlab turdi. Bu konferensiyada GMDPga qarshi yuridik taqiqlashni joriy qilish uchun ma'lumot to'plab borish ham rejalashtirildi. GMDPning MSYTga aloqadorligi bo'yicha faktlar to'plash ham ko'zlandi.

2012-yil dekabrda Bundesrat GMDP faoliyatini taqiqlash bo'yicha Konstitutsion sudga arznama tayyorlash haqida qaror qabul qildi. Biroq, 2013-yil aprelida Bundestagning ko'pchilik deputatlari sotsial-demokratlar va "so'llar"ning GMDP faoliyatini taqiqlab qo'yish bo'yicha Konstitutsion sudga arznama murojaatini qo'llab-quvvatlashmadi. Debatlar natijasida, barcha partiya fraksiyalari tomonidan yakdillik bilan GMDP o'ng ekstremistik partiya ekanligi va uning konstitutsiyaga nisbatan dushmanlik kayfiyatida ekanligi ta'kidlab o'tildi. Deputatlar arznomani qo'llab-quvvatlamaganliklariga izoh berar ekan, ular bu masalani yuridik nuqtai nazardan muammoli ekanligini bildirdilar. 2013-yilgi Bundestag saylovlarda GMDP 1,3% – 560.660 nafar saylovchi ovozini to'play oldi, bu natija esa ularning nomzodlarini Germaniya parlamenti tarkibiga o'ta olishiga kamlik qildi.

Hozirgi kunda GMDP a'zolari soni 18.000dan ortiq kishini tashkil etmoqda. Ularning Bundestagdagи ulushi hozircha – 0/631 bo'lsa, Yevroparlamentda har qalay 1/631ni tashkil etmoqda. Uning yetakchisi – Udo Pastors sanaladi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Дюверже М. Политические партии М. 2007 год
2. Спасский Е.Н . Политические партии ФРГ современное сос.аяние и тенденции общественного влияния. Вестник СПбГУ.Санкт-Петербург. 2006 год.